

BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR. AMERIKANING KASHF QILINISHI.

*Nabiyeva Shaxlo
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Namangan filiali, kunduzgi ta'lif,
ingliz tili fakulteti, 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yuzaga kelgan dolzarb voqealarni, shuningdek, Amerikaning kashf qilinishini o‘z ichiga oladi. XV asr oxiri va XVII asr boshlarida Yevropalik dengizchilar, xususan, Portugaliya va Ispaniya kashfiyotchilari yangi savdo yo‘llarini ochish va yangi hududlarni o‘rganish maqsadida uzoq dengiz safariga chiqishdi. 1492-yilda Kristofor Kolumb Ispaniya qiroli Ferdinand va qirolichasi Izabellaning qo‘llab-quvvatlashi bilan Hindistonning g‘arb tomoniga safar qiladi va bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yangi dengiz yo‘lini izlash bo‘lgan. Keyinchalik Kolumb kutilmagan holda Amerikaga yetib boradi. Kolumbning sayohati natijasida Yevropa va Amerika o‘rtasida yangi o‘simgiliklar, hayvonlar va kasalliklar almashinuvini keltirib chiqaradi. Shuningdek bu holat "**Kolumb almashinuvi**"¹ deb ataldi. So‘ngra Yevropaliklar Amerikada mustamlakalar tashkil qilib, mahalliy xalqni qiyab ularga ta’sir o‘tkaza boshladи.

Kalit so‘zlar: Buyuk geografik kashfiyotlar, Amerikaning kashf qilinishi, Kristofor Kolumb, Kolumb almashinuvi, Yevropa ekspansiyasi, savdo yo‘llari, yangi qit‘a va mustamlakachilik.

Mazkur maqolada keltirilgan Buyuk geografik kashfiyotlar davri Yevropa tarixida muhim bir bosqichlardan biri bo‘ib, bu davrda Yevropalik kashfiyotchilar yangi hududlarni kashf qilish, o‘rganish va boshqa yangi savdo yo‘llarini topish maqsadidagi say-harakatlarni o‘z ichiga oladi. XV asr oxiri va XVII asr boshlarida Yevropalik dengizchilar, shuningdek, Portugaliya va Ispaniya kashfiyotchilari uzoq dengiz safarlariga chiqib, ular oldinlari hech kim bormagan, bilmagan va noma'lum bo‘lgan boshqa yangi yerlarni o‘rgana boshlagan. Ular uzoq masofalarga suzib, turli xil xavf-xatarlarga qaramay, yangi hududlarni o‘rganishga va yangi yerlarni Yevropa mamlakatlariga tanishtirish maqsadida juda ko‘p izlanishlar olib bordilar. Ular yangi savdo yo‘llarini izlash orqali Yevropalik kashfiyotchilar o‘z kashfiyotlarini amalga oshirib, Yevropa mamlakatlariga iqtisodiy foyda keltiruvchi yangi savdo tarmoqlarini rivojlantirishga harakat qildilar. Bu jarayon orqali ular ko‘plab yangi davlatlar bilan xalqaro savdo aloqalarini kengaytirib, o‘z davlatlarining iqtisodiyotini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Yevropalik kashfiyotchilar asosan yangi resurslar va yangi mahsulotlar topishga urinishgan, chunki bu turdagи kashfiyotlar

Yevropa davlatlarining iqtisodiy o'sishiga va xalqaro savdo aloqalarini keskin rivojlantirishi mumkin edi. Ular uzoq masofalarga sayohat qilib, yangi manbalarni izlab, o'z mamlakatlari uchun iqtisodiyot imkoniyatlarni oshirishga va davlatlar orasidagi xalqaro mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Ular o'z davlatlari foyda keltiradigan yangi savdo tarmoqlarini rivojlantirish va global savdo imkoniyatlarini kengaytirishga intildilar. Keyinchalik yangi savdo yo'llari ochilgach, Yevropa davlatlari o'rtasidagi savdo-sotiq tezlik bilan rivojlanib, xalqaro munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Bu turdag'i savdo aloqalari kengayishi bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiyot va diplomatik munosabatlar yanada mustahkamlanib bordi. So'ngra kashfiyotchilar Yevropalik yangi yerlarni kashf etar ekan, turli xil madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar va bu ular uchun bilim va dunyoqarashni kengaytirishga yordam berdi. Ular sayohatlari davomida yangicha an'ana va urf-odatlarni o'rganib, boshqa yurt xalqlarini hayot tarzi va madaniyatiga oid yangi ma'lumotlarni o'zlashtirdilar. Bunday jarayon ular uchun yangi bilimlar va ko'nikmalarni bilish imkonini beradi. Ushbu turdag'i ko'plab kashfiyotlar geografik bilimlarni oshirib, boshqa mamlakatlar orasidagi savdo-sotiq ishlari orqali turli xil madaniyatni keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Bu tadqiqotlar yangi joylarning, mintaqalarning xaritalarini yaratilishiga va mahalliy an'analarni va madaniyatni keskin ta'sirini kuchaytirishga imkor berdi. Natijada, bu jarayonlar o'zaro madaniy tajriba va bilim almashuvini kuchaytirdi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yevropaning global miqyosda ta'siri sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu jarayon davomida Yevropa mamlakatlari mustaqil bo'lмаган hududlarni o'z nazorati ostiga olishga intilishdi. Ular yangi kashf etilgan yerlarda iqtisodiy va siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida mustamlaka siyosatini amalga oshirdilar, bu esa o'z navbatida xalqaro aloqalarni va savdo tarmoqlarini kengaytirdi. Shuningdek bu jarayonlar ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarda muhim o'zgarishlarga olib keldi. Yevropaliklarning yangi hududlarni egallashi va mustamlaka qilish jarayonlari, mavjud ijtimoiy tuzilmalarni o'zgartirib, iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini kiritdi. Shunday qolib bu o'zgarishlar yangi ish o'rnlari yaratishga, savdo va ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy qatlamlarning o'zgarishiga olib keldi. Bunday o'zgarishlar ijtimoiy hayotning ko'plab jabhalarini o'z ichiga oldi va natijada ijtimoiy munosabatlar yangi bosqichga o'tdi.

1492-yilda Xristofor Kolumb Ispaniya qirollari Ferdinand va Izabellaning ko'magida Hindistonning g'arb tomonga olib boradigan yangi dengiz yo'lini izlash maqsadida safarga otlandi. Bu ekspeditsiyaning maqsadi – eski savdo yo'llaridan foydalanmasdan, Yevropa uchun foydali bo'ladigan yangi va qulay yo'nalishlarni izlab topish edi. Kolumb o'zining qiziqishlari va qat'iyatini namoyon etib, uzoq yo'llarga safar qildi. Shuningdek yangi hududlarni o'rganib, kashfiyotlar tarixida o'chmas iz qoldirdi. Bu safar nafaqat uning shaxsiy yutuq, balki Yevroda tarixida katta

o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lган jarayon edi. Biroq, Kolumb o'zining safarini davom ettirar ekan, kutilmaganda Amerika qit'asiga yetib bordi. Bu hudud o'sha paytda yevropaliklar uchun mutlaqo noma'lum va hali kashf qilinmagan edi. U mana shu yangi qit'ani topganida, bu voqeа nafaqat uning hayotini, balki butun Yevropa va insoniyat tarixidagi katta burilishlardan biri bo'ldi. Kolumbning bu kashfiyoti Yevropa va Amerika o'rtasida yangi aloqalarni o'rnatishga yo'l ochdi. Bu kelajakda geografik hamda madaniy almashinuvlar boshlanishining poydevori bo'ldi. U, shunday qilib, yangi qit'ani kashf etdi va bu kashfiyot orqali Kolumb Yevropa va Amerika o'rtasidagi yangi aloqalarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Uning sayohati natijasida Yevropa va Amerika o'rtasida o'simliklar, hayvonlar va kasalliklar almashinuv boshlandi. Bu almashinuv ikki qit'a o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yaxshilab, ularning tabiatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, bu hodisalar tarixda "**Kolumb almashinuvi**"¹ deb nom oldi va bu jarayon ko'plab yangi ziddiyatlarga va bo'liqliklarga sabab bo'ldi. Bunday jarayonlar tarixda "Kolumb almashinuvi" deb ataladi. Ushbu almashinuv orqali Yevropaga yangi o'simliklar olib kelingan. Bu o'simliklar Yevropa ovqatlanish madaniyatida katta o'zgarishlarga olib keldi. Shuningdek, bu yangi mahsulotlar asosan kartoshka, pomidor va makkajo'xori edi. Yangi mahsulotlar Yevropada ovqatlanish odatlarini o'zgartirib, oziq-ovqat madaniyatiga o'ziga xos yangicha ta'm va xilma-xillikni olib kirdi. Ushbu yangi o'simliklarning paydo bo'lishi oziq-ovqat iste'moli uchun yangi taomlar va retseplarni yaratdi. Natijada, oziq-ovqat savdosi va taqsimot tizimi o'zgarib, keyinchalik boshqa savdo yo'llari paydo bo'ldi. Yevropa bozorlarida bu turdagи mahsulotlarning ko'payishi savdo faoliyatini kengayishiga sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlashuviga olib keldi. Bundan tashqari, Amerikaga olib borilgan otlar va sigirlar mahalliy aholi uchun ancha foydali bo'ldi. Otlar, ayniqsa, transport va qishloq xo'jaligida katta rol o'ynab, mahalliy xalqlarni dehqonchilik qilishi uchun yerlarga samarali ishlov berish imkonini berdi. Sigirlar esa go'sht va sut mahsulotlarini yetkazib berish orqali mahalliy aholi uchun yangi oziq-ovqat manbalarini yaratdi. Bu hayvonlar mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam berib, qishloq xo'jaligining samaradorligi oshirdi. Natijada, otlar va sigirlar Amerikadagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotini ajralmas qismiga aylanib, aholini turmush tarzini yengillashtirdi. Otlar transport va harakatni osonlashtirgan bo'lsada, sigirlar sut va go'sht uchun asosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Otlar mahalliy aholi uchun yangi hududlarni o'rganish va savdo aloqalarini rivojlantirishga yordam berib, ko'chmanchi hayot tarzini yanada qulayroq qildi. Shuningdek bular qishloq xo'jaligi uchun ancha foydali bo'lib, yerlarni qayta ishlov berishda va yerdan chiqqan mahsulotlarni bozorga olib borishda katta yordam berdi. Sigirlar mahalliy aholini nochor yashashdan qutqarib, ular aholiga sut va go'sht mahsulotlarini yetkazib berib turdi. Shunday qilib, otlar va sigirlar Amerika qit'asida

iqtisodiy hayotning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu o'zgarishlar mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki berib, ijtimoiy hayotda yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Otlar va sigirlarning kiritilishi orqali transport tizimi yaxshilandi, bu esa savdo-sotiq jarayonlarini soddalashtirdi va yangi savdo yo'llarining ochilishiga olib keldi. Mahalliy aholi o'z iqtisodiy faoliyatini kengaytirib, qishloq xo'jaligi, savdo va sanoatda yangi imkoniyatlarni ochdi, bu esa ularning turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

¹ Crosby, A. W. (1972). **The Columbian Exchange: Biological and Cultural Consequences of 1492.**

Westport, CT: Greenwood Press, p. 53.

<https://www.journals.uchicago.edu/doi/pdf/10.2307/20477666>

Shunday qilib, ijtimoiy hayotda yangi guruhlar va jamoaviy ishlash shakllari paydo bo'ldi, bu esa mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi. Bu o'zgarishlar mahalliy jamiyatlarni yanada rivojlanishiga va yangilanishiga olib keldi. Shuningdek, bu jarayonlar ham ovqatlanish madaniyatini, ham mahalliy jamiyatlarni o'zgartirdi. Yevropadan olib kelingan ba'zi o'simliklar va hayvonlar aholini yashash tarziga katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi oziq-ovqat mahsulotlarining paydo bo'lishi odamlar orasida ovqatning turi ko'payishi, ovqat tayyorlash va iste'mol qilish usullarini o'zgartirdi. Transport va qishloq xo'jaligida otlar va sigirlarning kiritilishi mahalliy aholi hayotiga yangilanishlar olib kirdi. Bu o'zgarishlar mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtirib, ijtimoiy tuzilmani ham o'zgartirdi, bu jarayonlar natijasida yangi ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik va jamiyatlar ichida yanada kuchli aloqalar o'rnatdi. Bu mahalliy jamiyatlar va ularning madaniyatini o'zgartirdi hamda rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Bu voqealar Yevropa va Amerika o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, ularning tarixi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropaliklarning yangi hududlarni kashf etilishi orqali savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yevropa mamlakatlaridan Amerikaga olib kelingan yangi mahsulotlar va resurslar yordamida o'z iqtisodiyotlarini kuchaytirishga intildi. Bu jarayon ikki qit'a o'rtasida madaniy almashinuvni nafaqat qo'ladi shuningdek, yangi madaniy hayotning shakllantirdi. Shu tariqa, bu voqealar Yevropa va Amerikani o'rtasidagi aloqalarga ta'sir ko'rsatib, tarixda yangi davrning boshlanishiga sabab bo'ldi. Yevropaliklar yangi hudularga o'rnashib olgach, bu yerlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va savdo faoliyatlarini yo'lga qo'yishga harakat qilishdi. Ular yangi yerlarning iqtisodiy manfaatlari uchun ishlatish maqsadida keng ko'lamli qishloq xo'jaligi tizimlarini tashkil etishga urinishdi. Bu jarayon mahalliy resurslarni qayta ishslash va savdo-sotiqni rivojlantirish imkoniyatlarini berdi. Yevropa mamlakatlari yangi hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib va savdo tarmoqlarini rivojlantirib, o'z iqtisodiy o'sishlarni ta'minlashga intildilar. Buning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi

o'zgarib ketti. Buning natijasida, Yevropa va Amerika o'rta sidagi iqtisodiy aloqalar yanada mustahkamlanib, Yevropa mamlakatlari Amerikdan shakarqamish, tamaki, paxta va qahva kabi yangi mahsulotlarni ayirboshlash qilishni boshladilar. Bu yangi mahsulotlar, ayrim insonlarga yoqaboshladi va unga bo'lган talab keskin kuchaydi. Yevropaliklar Amerikada yetishtirilgan resurslardan foydalanib, o'zlarini ichki ishlab chiqarishni rivojlantirib, bu jarayon savdo tarmoqlarining kengayishiga olib keldi. Bu almashinuvlar ikki qit'a ortasidagi munosabatlarni yaxshiladi va iqtisodiy o'sishga ham sabab bo'ldi. Yebropa bozorlarida bu mahsulotlar ko'p sotila boshlandi va yangi savdo tarmoqlari yaratildi. Natijada, yangi savdo yo'llarini topish va iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirdi. Shuningdek, bu yangi savdo imkoniyatlari Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy barqarorligini oshirib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochdi. Yangi mahsulotlar va ularning savdosi Yevropaning global iqtisodiyotidagi o'rnini kuchaytirib, xalqaro savdo jarayonlarini murakkablashtirdi. Bu holat Yevropaning iqtisodiy tuzilmasini o'zgartirib, yangi iqtisodiy strategiyalarni yaratilishiga to'g'ri keldi. Amerika qit'asidagi resurslar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari orqali Yevropaliklar katta daromad topa boshladilar va bu hududlarni o'z iqtisodiy tizimlariga qo'shishga intildilar. Yevropaliklar bu yangi manbalardan foydalangan holda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qildilar. Amerika qit'asidan olingan foydali qazilmalar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa resurslar Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy barqarorligini oshirdi va ularning iqtisodiy tizimlarida yangi shakllanishlarga olib keldi. Shuningdek, bu jarayonlar orqali Yevropaning iqtisodiy siyosatiga o'zgarishlar kiritildi, chunki Yevropaliklar yangi bozorlar va savdo yo'llarini ochish uchun intilishdi.

Mustamlakachilik: Yevropani turli yangi savdo yo'llarini izlash va yangi hududlarni yani Amerikaning kashf qiinishi mustamlakachilik siyosatining kuchayishiga olib keldi, chunki Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Angliya, xususan Yevropa mamlakatlari yangi hududlarni boshqarish va o'z iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash maqsadida mustamlakalar yaratdilar. Yevropaliklarning Amerikaga kelishi madaniy va siyosiy sohalarda katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Yangi hududlarga kelgan Yevropaliklar o'zlari targ'ib qilgan madaniyatlarini va an'analarini boshqalarga ham tanitishga harakat qildilar. Bu davr davomida Yevropaliklar ko'chib borgan yerdagi mahalliy aholi bilan yaxshi aloqada bo'lib, o'z dinlari, tillari va turmush tarzini ushbu aholiga olib kirdilar. Bu mahalliy xalqlar orasida madaniyat o'zgarishi, yangi urf-odatlar va an'analar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Yevropa davlatlari orasida siyosiy raqobat va kurash Amerikada yangi koloniylar shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu esa mahalliy xalqlarga ta'sir ko'rsatib, ularning ko'pchiliginiz ziddiyatlarga va qarama-qarshiliklarga duchor qildi. Natijada mahalliy aholi va Yevropa mustamlakachilari o'rta sidagi munosabatlar yomonlashib, tarixiy nuqtai nazardan Yevropa va Amerika o'rta sidagi aloqalar shakllantirishda katta

ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropaliklar Amerikaga kelib uning aholisiga o'z diniga va madaniyatiga sindirishga va bunga moslashtirishga undadilar. Ular yangi yerkunda kelib, o'zlariga mos bo'lgan an'analarni va diniy e'tiqodlarni, shuningdek yashash hayot tarzini olib kirdilar. Bu paytda shu ko'plab mahalliy xalqlar o'z madaniyatlaridan voz kechishib, Yevropa madaniyati va diniy qarashlariga moslashishi kerak bo'ldi. Yevropaliklarning o'zlarini bunday tutishlari mahalliy aholi orasida bir birini tushunmaslik va ko'plab ziddiyatlarni keltirib chiqardi, chunki ko'plab xalqlar o'z ma'daniyatini va an'anaviy hayot tarzlarini himoya qilishga urunishardi. Natijada, Yevropa va mahalliy madaniyatlar o'rtasida o'zaro murakkab va ko'p tomonlama munosabatlar shakllana boshladi. Bu holat vaqt o'tishi bilan madaniyat almashinuvi va integratsiya jarayonlarini yanada oshirdi. Bundan tashqari, Yevropa davlatlari o'rtasida ko'plab raqobatlar kelib chiqdi va bu raqobatlar Amerika qit'asidagi hududlarni egallah uchun urush boshlanishiga olib keldi. Bu raqobatlarga qaramay, Yevropa davlarlari o'rtasida yangi shartnomalar tuzuldi, jumladan, yangi diplomatik aloqalar va ittifoqlar shakllandi, lekin ba'zi hollarda zddiyat va urushlar ham kelib chiqdi. Yevropaliklar o'rtasidagi bu kurashlar Amerika qit'asining iqtisodiy va siyosiy ko'rinishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi va raqobatni yanada keskinlashtirdi. Bu urushlar natijasida yangi mustamlakachilik siyosatini shakllanishiga sabab bo'ldi va Yevropa davlatlari o'zini manfaatini himoya qilishi uchun bir-biriga qarshi chiqishga majbur bo'ldi. Bu Amerika va Yevropa o'rtasidagi aloqalarni ba'zan yaxshiladi, ba'zan esa mojarolarni keltirib chiqardi. Yevropa va Amerika o'ratacidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlanishini sababi bu keng ko'lamli aloqalar va o'zaro ta'sirlardir. Bu tarixda muhim o'rinni egalladi. Keng ko'lamli aloqalar bu yevropalik va amerikaliklar o'rtasidagi savdo va madaniyat almashinuvi va yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishiga asos bo'ldi. Bu ikki qit'a orasidagi bog'liqlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega edi, keyinchalik bu murakkab va dinamik munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Bunday o'zgarishlar kelajakdagi tarixiy va madaniy aloqalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bu munosabatlar har tomonlama uzoq davom etadigan munosabatlarni mustahkam poydevorini yaratadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, aytgan Buyuk geografik kashfiyotlar davri nafaqat Yevropa umuman olganda dunyo tarixida ham katta o'zgarishlarga olib keldi. Bu degani, ko'plab yangi savdo yo'llarini ochilishi, noma'lum hududlarning kashf etilishi va turli xil resurslar almashinishi, global iqtisodiyot va shunga o'xshash madaniy va iqtisodiy tuzilmalarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu orada Xristofor Klolumbning Amerika qit'asini kashf etishi "Kolumb almashinuvi" deb nomlangan yangi bir jarayonga sabab bo'ldi, bu esa aholi orasida ko'p narsalarning almashinuvi ya'niki yangi mahsulotlar va madaniyatning keng tarqalishiga asos bo'ldi. Ushbu jarayon Yevropa mamlakatlarining global ta'sirini yanada kuchaytirib, xalqaro savdo,

yashash tarzi va diplomatik munosabatlarni yangi boqichiga chiqardi. Shu sabab bu kashfiyotlar ko'plab millatlarni birlashtirib mustamlakachilikning kengayishiga va boshqa millat insonlari bilan aloqalarning kuchayishiga yo'l ochdi. Shu sababli, Buyuk geografik kashfiyotlar davri butun dunyo tarixiga chuqur ta'sir ko'rsatib, global taraqqiyotning muhim bir bosqichiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Philip D. Curtin, *The Rise and Fall of the Plantation Complex: Essays in Atlantic History*, Cambridge University Press, 1998.
2. Charles C. Mann, *1493: Uncovering the New World Columbus Created*, Knopf, 2011.
3. J.H. Parry, *The Age of Reconnaissance: Discovery, Exploration, and Settlement, 1450 to 1650*, University of California Press, 1981.
4. Alfred W. Crosby, *The Columbian Exchange: Biological and Cultural Consequences of 1492*, Greenwood Press, 1972.
5. Alfred W. Crosby, *Ecological Imperialism: The Biological Expansion of Europe, 900-1900*, Cambridge University Press, 1986.
6. Immanuel Wallerstein, *The Modern World-System I: Capitalist Agriculture and the Origins of the European World-Economy in the Sixteenth Century*, Academic Press, 1974.
7. Tzvetan Todorov, *The Conquest of America: The Question of the Other*, University of Oklahoma Press, 1999.
8. Fernand Braudel, *The Mediterranean and the Mediterranean World in the Age of Philip II*, Harper & Row, 1972.
9. David Abulafia, *The Discovery of Mankind: Atlantic Encounters in the Age of Columbus*, Yale University Press, 2008.
10. Kenneth Pomeranz, *The Great Divergence: China, Europe, and the Making of the Modern World Economy*, Princeton University Press, 2000.
11. Niall Ferguson, *Empire: How Britain Made the Modern World*, Penguin, 2003.
12. Felipe Fernández-Armesto, *Pathfinders: A Global History of Exploration*, Oxford University Press, 2006.
13. John H. Elliott, *Empires of the Atlantic World: Britain and Spain in America 1492-1830*, Yale University Press, 2006.
14. Hugh Thomas, *Rivers of Gold: The Rise of the Spanish Empire*, Random House, 2004.
15. Bailey W. Diffie and George D. Winius, *Foundations of the Portuguese Empire, 1415–1580*, University of Minnesota Press, 1977.
16. Anthony Pagden, *Lords of All the World: Ideologies of Empire in Spain, Britain and France c.1500–c.1800*, Yale University Press, 1995.
17. Stuart B. Schwartz (ed.), **Victors and Vanquished: Spanish and Nahua Views of*